

DAVLAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA XUSUSIY TA'LIMNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

Abdulxamidov Dilmurod Umarjon o'g'li

Email: dil9295a@gmail.com

Annotatsiya: Quyida keltiradigan maqolada mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari, asosan xususiy ta'lim tizimining iqtisodiyotda tutgan o'rni bo'yicha turli xil nazariyalar, olimlarning fikrlari tadqiq etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi aytilgan.

Kalit so'zlar: Xususiy ta'lim, bandlik, iqtisodiy o'sish, oliy ta'lim, raqobat, ta'lim eksporti, iqtisodiy samara, korrupsiya, ish haqi, ta'lim xarajatlari, ta'lim krediti, to'lovkontrakt, davlat buyurtmasi.

THE CURRENT ROLE OF PRIVATE EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE ECONOMY

Annotation: The article below examines the issues of ensuring economic growth through the development of the education system in the country, mainly the role of the private education system in the economy, various theories and opinions of scientists. It also discusses the effectiveness of the work being carried out to develop the education system in Uzbekistan.

Keywords: Private education, employment, economic growth, higher education, competition, education export, economic efficiency, corruption, wages, education costs, education credit, payment contract, state order.

СОВРЕМЕННАЯ РОЛЬ ЧАСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы обеспечения экономического роста за счет развития системы образования в стране, в основном роль частной системы образования в экономике, различные теории и мнения ученых. Также рассматривается эффективность проводимой работы по развитию системы образования в Узбекистане.

Ключевые слова: Частное образование, занятость, экономический рост, высшее образование, конкуренция, экспорт образования, экономическая эффективность, коррупция, заработная плата, расходы на образование, образовательный кредит, платежный контракт, государственный заказ.

KIRISH

Hozirgi zamon jahonning ko'plab mamlakatlarining asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Chunki bu aholi turmush darajasini oshirish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash va jamiyat farovonligini mustahkamlashning asosiy dvigateli hisoblanadi. Biroq, barqaror hamda mustahkam iqtisodiy o'sishga erishish uchun bir qator omillarni hisobga olish zarur. Ular ichida eng asosiylaridan biri mamlakat aholisining bilim darajasidir. Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki, ta'lim inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shadigan eng asosiy vositalardan biridir. Ta'lim orqali zamonaviy iqtisodiyotda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllantirildi hamda insonlarga zamonaviy va tez o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish imkonini yaratadi. Shu boisdan ham aholining bilim olishi masalasi nafaqat tadqiqotchilar, bali siyosatchilar va iqtisodchilarning ham diqqat markazida turadi. Ta'limning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini klassik iqtisodchi olimlar ham, hozirgi zamon olimlari ham birday o'rganishgan. Jumladan, klassik iqtisodchi Adam Smitning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot" asarida mehnat unumdorligini oshirishda ta'limning muhimligi alohida ta'kidlangan. Ushbu asarda ilmiy xodimlar zamonaviy usul va texnologiyalardan samaraliroq foydalanishi mumkinligini tadqiq etilgan.

Xususiy sarmoyaning kirib kelishi – oliy ta'limimizdagi eng katta yutuqlarimizdan biri. 2016 yilda boshlangan bozor munosabatlari borasidagi islohotlar uchun oliy ta'lim qulay soha bo'ldi. Sababi oddiy: yildan yilga o'sib borgan talabga qaramasdan, davlat universitetlarida o'rnatilgan qabul kvotasi jamiyatda millionlab o'qimaganlar "bozori"ni paydo qildi. Raqamlar: 2023 yilda davlat universitetlariga hujjat topshirgan abituriyentlar soni 986 mingdan oshgan bo'lsa-da, ularga ajratilgan qabul kvotasi 381 mingtani tashkil qilgan.

Oliy ta'lim qamrovini oshirish uchun xususiy universitetlarga nafaqat kunduzgi, balki sirtqi ta'limni tashkil qilishga ruxsat berilishi bu bozorni biznes uchun juda jozibali qilib yubordi. Muqobil taklifi bo'lmagan yoshlarga bilim berib, jamiyatda ijobiy o'zgarish qilish kabi xayrli ish asosiga biznes qurish va bu orqali daromad topish har bir tadbirkorning orzusi bo'lsa ajabmas. Shu sababli ham, taklifga mutanosib ravishda xususiy universitetlar soni so'nggi 6 yil ichida 85 tadan oshib ketdi.

Mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni hisobga olib, mamlakat iqtisodiy o'sishi prognozlariga nisbatan ta'lim tizimini rivojlantirish prognozlarini berish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Prognozlarga ko'ra, 2026-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti 2021- yilga nisbatan 2,3 baravarga oshadi, bu esa bevosita ta'lim xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushiga ham ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi rasmda 2018-2024 yillardagi O'zbekiston Respublikasi YaIM va ta'lim

tizimini moliyalashtirish uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning o'sish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin.

Yaqin yillargacha O'zbekistonning oliy ta'limi ikkita asosiy o'yinchining hukmronligi ostida bo'lgan: davlat universitetlari va kam sonli xalqaro universitetlar filiallari. Eski qolipdan endigina qutulishni boshlagan davlat universitetlari yillar davomida zamon talabiga mos kelmaydigan darsliklar, malakali mutaxassislar taqchilligi va erkin tadqiqot qilishga qo'yilgan to'siqlar girdobida qolib ketgani ko'p bahs qilingan.

Boshqa tarafdin, 2000-yillar boshlaridan bozorga yangi kadrlar tayyorlash zarurati bilan xalqaro standartlar asosida ta'lim beruvchi chet el universitetlarining filiallari kirib kela boshladi. Poytaxtning shinam hududlarida joylashgan xalqaro universitetlar zamonaviy sharoit, malakali professorlar va ingliz tilidagi ta'lim bilan xalq orasida yaxshigina obro'ga erishib, hammani o'ziga mahliyo qilgan bo'lsa-da, grantlar kamligi va narxning qimmatligi bu muassasalarda o'qishni oddiy qatlam uchun imkonsiz qildi.

2018-yildagi islohotlardan keyin bozorda yangi o'yinchi – xususiy universitetlar paydo bo'la boshladi va ular qisqa muddatda bozor dinamikasini o'zgartirib yubordi. Fikrimcha, davlat yoki xorijiy sarmoya aralashgan universitetlarni hisobga olmaganda, bugungi kunda oliy ta'lim bozorida paydo bo'lgan xususiy universitetlarni uch turga bo'lib tahlil qilish mumkin.

Hajm jihatidan yirik hisoblangan birinchi turdagi universitetlar ortida odatda sobiq yoki ayni paytdagi amaldorlar turadi deb taxmin qilish mumkin. Nisbatan kichik va o'rta hajmga ega ikkinchi turdagi universitetlar ortida yetarli sarmoya orqali mavjud imkoniyatdan unumli foydalangan tadbirkorlar qatlami turadi. Bu qatlam yillar davomida ta'lim sohasida faoliyat yuritib tajriba va sarmoya to'plagan yoki boshqa bizneslardan kelgan sarmoyasini jozibasi oshib borayotgan ta'lim sohasiga tikayotgan tadbirkorlarni o'z ichiga oladi. Va nihoyat, xalqaro universitet maqomiga erishishga da'vogar bo'lgan uchinchi turdagi universitetlar ortida katta moliyaviy qudratga ega yirik biznes egalari turadi.

XULOSA

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish borasida, son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tish tizimini joriy etish orqali bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, oliy ta'lim tizimida ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etish, sifatli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni yanada rivojlantirish bo'yicha joriy yilning 24-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-sonli hamda 27- may kuni "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga budjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi

PF-82 sonli Farmonlari qabul qilindi. Mazkur farmonlarning qabul qilinishi mamlakatda oliy ta'lim tizimini yanada samarali va sifatli bo'lishiga imkon yaratmoqda. Shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ham bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda va kelgusida bunday samarali chora-tadbirlarni keng ko'lamda davom ettirish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болгова Е.В. Экономическая роль образования: статистический парадокс или проблемы эффективности? // Креативная экономика. – 2011. – Том 5. – № 10. – С. 68-73.
2. Sherov, A. B. (2022). Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy. *Gospodarka i Innowacje.*, 21, 127-130.
3. Ibragimovich, A. I. (2024). The importance of human capital in the economy. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 40(1), 22-30.
4. Каторгина О. В. Роль образования в экономике и воздействие экономики на образование: сборник трудов конференции. / О. В. Каторгина, Т. Н. Ржанникова // Педагогика и психология: перспективы развития : материалы VII Междунар. науч.- практ. конф. (Чебоксары, 1 март 2019 г.) / редкол.: О. Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2019. – С. 97-100.
5. Sherov, A. B., & Ruzmetova, G. N. A. (2022). O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 264-270.
6. Е. А. Пашахина. Роль образования в экономическом развитии. Вестник бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент. 2020/2
7. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). Таълим муассасаларини молиялаштиришда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш истиқболлари. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 62-67.